

KORPORATIV BOSHQARUVDA AKSIYADORLAR HUQUQLARI VA ULARNING ROLINI OSHIRISH MASALALARI

Korporativ boshqaruv tizimi barcha aksiyadorlar, shu jumladan ozchiliklar va chet ellik aksionerlarga teng va adolatli munosabatni ta'minlashi, hamda aksiyadorlar huquqlarini himoya qilishi kerak. Barcha aksiyadorlar ularning huquqlarini buzilish holatlarida samarali tovon olish imkoniyatiga ega bo'lishlari lozim.

Aksiyadorlik jamiyatlari investorlari muayyan mulk huquqlariga ega. Masalan, ochiq savdodagi kompaniyaning aksiyadorlik kapitali sotib olinishi, sotilishi yoki transfer qilinishi mumkin. Bu esa investitsiyalar hajmiga bog'liq ravishda investorga korporatsiya daromadlarida ishtirok etish huquqini beradi. Bundan tashqari, aksiyalarning ulushi korporatsiya va uning huquqi haqida ma'lumot olish huquqiga ega, shuningdek oddiy aksiyadorlar uchrashuvlar va ovoz berish jarayonlari orqali korporatsiya boshqaruviga ta'sir ko'rsatishi mumkin.

Biroq, amaliy masala sifatida, korporatsiyani aksiyadorlar umumiy yig'ilishi orqali boshqarish ilojiy. Aksiyadorlik jamoasimanfaatlari, maqsadlari, investitsion chegarasi va imkoniyatlari turli xil bo'lgan tashkilotlar va jismoniy shaxslardan tashkil topishi tabiiy. Bundan tashqari, korporativ boshqaruv biznes qarorlarini tezda qabul qilishi kerak. Ushbu haqiqatlar va boshqaruvning murakkabligi asosida shiddat bilan o'zgarib borayotgan va tezlashayotgan bozorlarda korporativ aloqalarni boshqarish ma'suliyatini aksiyadorlardan kutish bu yuzaki qarash. Korporativ strategiya va operatsiyalar uchun mas'uliyat odatda tayinlangan, ishonilgan va qachon zarur bo'lsa almashtiriladigan boshqaruv kengashi va boshqaruv guruhlarining qo'llariga topshiriladi.

Aksiyadorlar korporativ markazga ma'lum asosiy masalalar orqali ta'sir ko'rsatadi, masalan, Boshqaruv a'zolarini saylash yoki Kengash tarkibiga ta'sir ko'rsatadigan boshqa vositalar, ichki hujjatlardagi o'zgarishlarga ta'sir qilish, favqulodda vaziyatlar bo'yicha bitimlarni tasdiqlash va kompaniyadagi qonunlar va ichki nizomlarda nazarda tutilgan boshqa muhim masalalar. Ushbu bo'lim aksariyat mamlakatlarda qonun tomonidan e'tirof etilgan aksiyadorlarning asosiy huquqlarining bayonoti sifatida qaralishi mumkin. Auditorlarni tasdiqlash yoki tanlash, direktorlar kengashi a'zolarini bevosita tayinlash, aksiyalarni taqsimlash, foydani taqsimlashni tasdiqlash, aksiyadorlarning boshqaruv kengashi a'zosini tayinlashda ovoz berish qobiliyati va boshqa shu kabi qo'shimcha huquqlar ham turli yurisdiksiyalarda yaratilgan.

Boshqaruv va ma'muriy a'zolar ishlariga nisbatan huquqiy va ma'muriy choralar joriy etish aksiyadorlar o'z huquqlarini amalga oshirishlari mumkin bo'lgan usullardan biri hisoblanadi. Tajribalar shuni ko'rsatadiki, shikoyatlar uchun maqbul tovon puli va ularni ortiqcha kechiktirmasdan hal qilish uchun samarali usullarning mavjudligi aksiyadorlar

huquqlarini himoya qilinishida muhim darajaga ega. Aksiyadorlarni boshqaruvdagi rolini oshirish uchun quyidagi masalalar hisobga olinishi lozim:

Aksiyadorlarning asosiy huquqlari quyidagilarni o'z ichiga olishi: 1) mulkni ro'yxatga olish; 2) aksiyalarni uzatish yoki o'tkazish; 3) korporatsiyaga tegishli axborotni o'z vaqtida va doimiy olish; 4) aksiyadorlarning umumiy yig'ilishlarida qatnashish va ovoz berish; 5) boshqaruv kengashi a'zolarini saylash va lavozimidan ozod qilish; 6) korporatsiya foydasidan ulushga egalik qilish.

Aksiyadorlar quyidagi asosiy korporativ o'zgarishlarga doir masalalar bo'yicha yetarli darajada xabardor qilinishi va ular bu masalalarda qatnashish va ma'qullash huquqiga ega bo'lishlari lozim: 1) kompaniyaning ta'sis va shunga o'xshash boshqaruv hujjatlarining asosiy moddalariga qo'shimcha o'zgartirishlar kiritish; 2) qo'shimcha aksiyalar chiqarilishiga roziligi; va 3) shu jumladan kompaniyani sotishga olib keladigan barcha aktivlarni o'tkazish.

Aksiyadorlar aksiyadorlarning umumiy yig'ilishlarida samarali ishtirok etish va ovoz berish, shuningdek ular quyidagilar to'g'risida axborot olishlari lozim: 1. Aksiyadorlarga umumiy yig'ilish sanasi, joylashuvi va kun tartibishuningdek, yig'ilishda qaror qabul qilinadigan masalalar to'g'risida ma'lumotlari yetarli va o'z vaqtida taqdim etilishi. 2. Aksiyadorlarning umumiy yig'ilishini o'tkazish jarayoni va tartibi barcha aksiyadorlarning adolatli munosabatini ta'minlashi kerak.

Bir xil sinf turkumidagi barcha aksiyadorlarga teng darajada muomalada bo'linishi kerak. Muayyan aksiyadorlarga boshqarishda yoki ta'sir qilishda ortiqcha darajadagi huquqni beruvchi va egalik huquqidagi nomutanosibliklarga olib keluvchi har qanday kapital strukturalar va kelishuvlardan saqlanish kerak.